


Bankni strategik rivojlantirish departamenti

Jahon va moliya bozorlariga oid sharh

02 noyabr, 2026 yil

SQB, NBU, AGRO BANK, IPOTEKA BANK va ALOQA BANK evrobondlarining daromadliligi

(20 oktabr 2025 yildan 02 noyabr 2026 yilgacha Bloomberg ma'lumotlariga ko'ra, foizlarda)



SANOAT QURILISH BANK

SQB evrobondlarining daromadliligi

2024-yil iyul oyida SQB Londondagi fond birjasida xalqaro obligatsiyalarni joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,362%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 6,960% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich pasayib va 6,891% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon daromadlilik 5,79% – 7,131% gacha o'zgarib turdi.

2025-yil oktyabr oyida SQB muvaffaqiyatli ravishda Londondagi fond birjasida xalqaro qo'shimcha birinchi darajali kapital (AT1) obligatsiyalarini joylashtirdi. Savdolarning birinchi kunida ularning daromadliligi 9,276%ni tashkil etdi.

SQB obligatsiyalarining daromadliligi o'tgan hafta boshida 10,005% darajasiga yetdi. Haftaning oxiriga kelib esa bu ko'rsatkich 9,933% darajaga pasaydi. Yil boshidan buyon daromadlilik 8,978% – 10,190% gacha o'zgarib turdi.

NBU O'ZBEKISTON MILLIY BANKI

O'tgan hafta NBU evrobondlarining daromadliligi 6,741% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarlib 6,799% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,612-6,982% gacha o'zgarib turdi.

ipotekabank otp group

O'tgan hafta IPOTEKA BANK evrobondlarining daromadliligi 6,974% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik ko'tarilib 7,035% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 5,733-7,04% gacha o'zgarib turdi.

Agrobank

O'tgan hafta AGRO BANK evrobondlarining daromadliligi 7,234% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 7,193% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 6,067-7,387% gacha o'zgarib turdi.


AloqaBank

O'tgan hafta ALOQA BANK evrobondlarining daromadliligi 8,492% darajasida bo'lgan. Haftaning yakunida daromadlilik pasayib 8,385% ni tashkil etdi. Yil boshidan buyon bu ko'rsatkich 7,680-8,537% gacha o'zgarib turdi.

SOFR va Euribor


AQSH va Yevropadagi banklararo kreditlar bo‘yicha o‘rtacha foiz stavkasi

SOFR dinamikasi



Yil boshidan buyon SOFR stavkasi 3,5-3,95% atrofida barqaror bo‘lib turmoqda. Haftaning boshida SOFR stavkasi 3,93% ni tashkil etdi, haftaning oxiriga kelib ko‘rsatkich ko‘tarilib — 3,94 darajasiga yetdi. Bu bozor likvidligi va monetar siyosatdagi kutilmalarning o‘zgarishlarini ko‘rsatadi. Federal rezervning foiz stavkalari bo‘yicha pozitsiyasi SOFR stavkasi darajasini belgilashda davom etmoqda. Siyosiy o‘zgarishlar kutilmalari stavkada kichik o‘zgarishlarga olib kelishi mumkin.


Euribor dinamikasi



Euribor kutilganidan tezroq pasaymoqda. Yevropa Markaziy banki foiz stavkasini tez sur'atlar bilan kamaytirishni davom ettirmoqda. Buning sabablaridan biri – inflyatsiyaning pasayishi. Yevropadagi ko‘plab ipoteka kreditlari bog‘langan Yevropa banklararo stavkasi (Euribor) o‘tgan haftaning boshiga kelib 2,676% (3 oylik) va 2,992% (6 oylik) darajalariga tushdi. 2023-yilning oktyabr o‘rtalarida foiz stavkasi 4% dan oshgan edi. Euribor stavkasining tarixdagi eng yuqori darajasi 2008-yilning qishida qayd etilgan bo‘lib, u deyarli 5,5% ni tashkil etgan. Yil boshidan buyon maksimal ko‘rsatkichlar 3,103% (6 oylik) va 2,682% (3 oylik) ni tashkil etdi.


O‘zbekiston valyuta bozori

O‘zbekiston Respublikasi valyuta birjasidagi savdo hajmi, mln dollar



- ✓ O‘tgan hafta valyuta birjasidagi savdo 1 033,2 million dollarni tashkil etdi, bu o‘tgan haftaning savdo hajmiga nisbatan 79,1 million dollarga ko’proq.
- ✓ O‘tgan haftaning boshida milliy valyutaning dollarga nisbatan maksimal kursi 11 861 so‘mni tashkil etdi, keyin haftaning oxiriga kelib pasayib 12 023 so‘mga yetdi.
- ✓ Har yili so‘m o‘rtacha 3,5-4,5% ga devalvatsiyaga uchraydi, 2023-yildan tashqari (9,77%), bu holat Rossiya valyutasi devalvatsiyasi eksport tushumlari kamayishi va mehnat migrantlarining pul o‘tkazmalari bilan bog‘liq edi. Joriy yil boshidan buyon revalvatsiya 0,59% ni tashkil etdi.

Dollarning so‘mga nisbatan almashinish kursi






02.11.2026 yil holatiga ko‘ra, aholi uchun dollar sotib olishda eng foydali kurs *Davr bankda* qayd etilgan – *12 030* so‘m. Boshqa banklarda esa kurs 12 050 – 12 080 so‘m atrofida o‘zgarib turdi.




Aholi uchun dollar sotish bo‘yicha eng foydali kurs *Mikrokreditbankda* qayd etilgan – 12 010 so‘m. Boshqa ko‘plab banklarda esa kurs 11 995 – 11 970 so‘m atrofida bo‘lgan.

Valyuta juftliklariga oid sharh (Refinitiv Eikon)


USD-RUB dinamikasi



YUAN-RUB dinamikasi



EUR-USD dinamikasi





Rublning mustahkamlanishi fonida AQSh dollari kursi pasaydi

2026-yil 26–30-oktabr kunlari AQSh dollari kursi 80,8 rubldan 80,7 rublgacha pasaydi. Hafta davomida kurs 80,5–81,3 rubl oralig‘ida o‘zgarib turdi. Eksportdan tushgan valyuta tushumlarining sotilishi, yuqori foiz stavkalari hamda jahon bozorida neft narxlarining oshishi Rossiya rublining mustahkamlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin. AQSh dollari kursining qisqa muddatli o‘sishiga qaramay, hafta oxiriga kelib rubl o‘z pozitsiyalarini tikladi. Umuman olganda, valyuta bozorida nisbiy barqarorlik saqlanib, hafta Rossiya rublining biroz mustahkamlanishi bilan yakunlandi.



Xitoy yuani hafta yakunida biroz mustahkamlandi

2026-yil 26–30-oktabr kunlari Xitoy yuanining Rossiya rubliga nisbatan kursi 11,6 rubldan 11,7 rublgacha oshdi. Xitoy valyutasining eng sezilarli mustahkamlanishi 27-oktabrda kuzatilib, kurs 11,8 rublga yetdi. Biroq keyingi kuni kurs dastlabki darajasiga qaytdi, bu esa o‘sishning qisqa muddatli bo‘lganini ko‘rsatdi. Haftaning ikkinchi yarmida yuan yo‘qotilgan pozitsiyalarining bir qismini tiklab, 11,7 rubl darajasida barqarorlashdi. Kursning tor diapazonda o‘zgarishi valyuta bozorida talab va taklif o‘rtasida nisbiy muvozanat saqlanganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, barqaror o‘sish tendensiyasining kuzatilmagani Xitoy valyutasi kursidagi o‘zgarishlar cheklanganligini ko‘rsatadi. Hafta yakunida yuan rublga nisbatan biroz mustahkamlanib, barqaror pozitsiyasini saqlab qoldi.




Yevro hafta yakunida biroz qadrsizlandi


2026-yil 26–30-oktabr kunlari yevroning AQSh dollariga nisbatan kursi 1,1172 dollardan 1,1158 dollargacha yoki 0,13 foizga pasaydi. Yevropa valyutasining eng sezilarli zaiflashuvi 27-oktabrda kuzatilib, kurs 1,1122 dollargacha tushdi. Keyingi kunlarda yevro o‘z pozitsiyalarini tiklab, 29-oktabrda 1,1178 dollar darajasiga yetdi. AQSh dollarining barqarorligi hamda Federal rezerv tizimi tomonidan qat’iy pul-kredit siyosatining saqlab qolinishi haqidagi kutilmalar yevro kursiga bosim o‘tkazdi. Energiya resurslari narxlarining oshishi fonida yevro hududida inflyatsiya xatarlarining kuchayishi bozordagi noaniqliklarni yanada oshirdi. Hafta davomida kuzatilgan tiklanishga qaramay, yevro o‘sish sur’atini saqlab qola olmadi va haftani biroz pasayish bilan yakunladi.

Asosiy xom ashyo tovarlari narxlariga oid tahlil


Oltin narxlari dinamikasi
(bir untsiya uchun, AQSh dollarida



Brent nefti narxlari dinamikasi
(bir barrel uchun, AQSh dollarida)



TTF gaz narxlari dinamikasi
(megavatt-soat uchun, AQSh dollarida)



Oltin narxi hafta oxiriga kelib keskin pasaydi



2026-yil 26–30-oktabr kunlari jahon bozorida oltin narxi sezilarli darajada pasayib, haftalik yo‘qotish 3,52 foizni tashkil etdi. Haftaning dastlabki kunlarida qimmatbaho metall narxi o‘sib, 28-oktabrda bir troya unsiyasi uchun 4 067,1 dollarga yetdi. Biroq keyinchalik sotuv hajmining ortishi natijasida oltin narxi keskin pasayib, hafta oxiriga kelib 3 875,1 dollargacha tushdi. Faqat 30-oktabr kunining o‘zida oltin 3,61 foizga qadrsizlanib, ko‘rib chiqilayotgan davrdagi eng katta kunlik pasayishni qayd etdi. Narxlarning bunday keskin pasayishi qimmatbaho metallar bozorida qisqa muddatli bosim kuchayganini hamda investorlar kayfiyatidagi o‘zgarishlarga bozorning sezgirligi ortganini ko‘rsatadi.

Brent nefti narxi hafta yakunida oshdi



2026-yil 26–30-oktabr kunlari jahon bozorida Brent markali neft narxi bir barrel uchun 115,81 AQSh dollaridan 117,64 dollargacha oshdi. Hafta boshida Yaqin Sharqdagi keskinlikning yumshashi haqidagi kutilmalar fonida neft narxi 113,88 dollargacha pasaydi. Biroq keyinchalik geosiyosiy vaziyatning keskinlashuvi va neft yetkazib berishdagi uzilishlar xavfining ortishi narxlarning tiklanishiga turtki berdi. Natijada Brent nefti narxi haftani ko‘rib chiqilayotgan davrdagi eng yuqori darajada yakunladi. Geosiyosiy noaniqliklar fonida neft bozorida narxlarning o‘zgaruvchanligi saqlanib qolishi mumkin.

Yevropa TTF gazi narxining o‘sishi davom etmoqda



2026-yil 26–29-oktabr kunlari Yevropa bozorida TTF tabiiy gazi narxi 97,8 dan 99,6 gacha oshdi. Davr boshida biroz pasayish kuzatilgan bo‘lsa-da, 28-oktabrda narxlar keskin ko‘tarilib, 102,4 darajasiga yetdi. Narxlarning oshishiga suyultirilgan tabiiy gaz yetkazib berishdagi uzilishlar xavfi hamda qish mavsumi yaqinlashishi bilan isitish uchun gazga bo‘lgan talabning ortishi haqidagi kutilmalar sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Biroq 29-oktabrda narx bosimining qisman yumshashi fonida kotirovkalar 99,6 darajasigacha pasaydi. So‘nggi kunda kuzatilgan pasayishga qaramay, gaz bozorida o‘sish tendensiyasi saqlanib qoldi va yetkazib berish bilan bog‘liq xatarlarga nisbatan yuqori sezgirlik kuzatildi.